

“TASDIQLAYMAN”

“Olmaliq KMK” AJ Boshqaruv raisining
birinchi o‘rinbosari – Bosh muhandis v.b.
S.V. LARIONOV
8 yanvar 2024 yil

“Olmaliq KMK” AJ da 2023-yil davomida (1 yanvar – 31 dekabr) uchun Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining amal qilishi haqida UMUMIY HISOBOT

I. “Olmaliq KMK” AJ Korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlar dasturi bajarilgani to‘g‘risida umumiy axborot¹

Kombinat tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish tadbirlarining amalga oshirilgan. Jumladan “Olmaliq KMK” Ijro apparati hamda barcha 44ta tarkibiy bo‘linmalarda korrupsiyaga qarshi kurashish tadbirlarini amalga oshirish ta‘minlandi.

Kombinatning tarkibiy bo‘linmalari kesimida Korrupsiyaga qarshi kurashish tadbirlarini amalga oshirmagan bo‘linmalar mavjud emas, biroq to‘liq, sifatli va belgilangan muddatlarda bajarmagan tarkibiy bo‘linmalar afsuski mavjud.

“Ernst and Young Advisory” konsalting auditorlik kompaniyasi bilan hamkorlikda quyidagi ishlar amalga oshirilgan:

- “Olmaliq KMK”Ajning korrupsiyaga qarshi kurashish menedjment tizimi (KQKMT) batafsil qayta ko‘rib chiqilgan;
- 18 ta ichki local hujjatlar ishlab chiqilgan va tasdiqlangan;
- “Olmaliq KMK”Ajning tashqi va ichki korrupsiyaviy xavf-xatarlar omillari taxlili o‘tkazilgan, korrupsiyaga qarshi kurashish soxasidagi maqsadlar tasdiqlangan;
- “Olmaliq KMK”Ajning korrupsiyaviy xavf-xatarlari baholanib, umumiy korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi tasdiqlangan;
- “Olmaliq KMK”Ajning korrupsiyaviy xavfga moyilligi yuqori bo‘lgan lavozimlari ro‘yxati tuzilgan;
- “Olmaliq KMK”Ajning korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi ichki auditi o‘tkazilgan;
- korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi bo‘yicha o‘quv-trening mashg‘ulotlari o‘tkazilgan.

II. Siyosat va tartib-taomillar

¹Ushbu bo‘limda va keyingi o‘rinlarda hisobotning har bir bo‘limi bo‘yicha quyidagilarni ko‘rsatish kerak:

- Birlashgan ko‘rinishda markaziy apparat, hududiy va tarkibiy bo‘linmalar kesimida hisobot davri uchun ma‘lumotlar. Agar zaruriyat bo‘lsa, alohida bo‘linmalar va ular bo‘yicha ma‘lumotlarni ko‘rsatish;
- Zaruriyat tug‘ilganda avvalgi davrlar ko‘rsatkichlari bilan solishtirma tahlil o‘tkazish, qoniqarli natijalarga erishganlik\erishmaganlik sabablarini ko‘rsatish lozim.

"Olmaliq KMK" AJda Indicator topshiriqning 1.1.1-bandida keltirilgan barcha 12 ta Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ichki idoraviy hujjatlar ishlab chiqilgan, tasdiqlangan va joriy qilinmoqda. Bundan tashqari, qoshimcha ravishda Kuzatuv kengashi tomonidan 2022 yil 5-iyul sanasidagi 17-son Protokol qarori bilan yana - 2ta hujjat qabul qilingan. Yuqoridagi ro'yhatda "Olmaliq KMK" AJ Kuzatuv kengashi Majlisining Protokol qarori keltrilmoqda va tasdiqlangan 2ta hujjat ham matni ham Modul Indikatoriga biriktirilgan.

"Olmaliq KMK" AJning korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi jami hujjatlari soni 2024 yilning 1 yanvar holatiga - 18 donani tashkil qilmoqda. Davaktiv agentligining 2023 yil 23 iyundagi #03/09-2-17/3005-son hatiga asosan Davaktiv agentligi tomonidan Osiyo taraqqiyot banki hamda Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki ekspertlari bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan yangi tahrirdagi "Korporativ boshqaruv qoidalari", "Ahloq kodeksi", "Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati", "Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish siyosati" va "Qoidabuzarliklar haqida xabardor qilish siyosati" kabi (jami besh dona) hujjatlar loyihalari Kombinatning o'z faoliyat yo'nalishlaridan hamda o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda qayta ishlab chiqildi hamda "Olmaliq KMK" AJ Kuzatuv kengashiga va Davaktivga ko'rib chiqish va tasdiqlash uchun 2023 yilning sentyabr oyida taqdim qilingan. Ayni vaqtda yangi tahrirdagi hujjatlar loyihalarini Kuzatuv kengashining a'zolari bilan kelishish ishlari davom ettirilmoqda.

"Olmaliq kon-metallurgiya kombinati" AJ ijro apparati hamda tarkibiy tuzilmalarida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha komplaens-nazorat tizimini joriy etishga oid ichki normativ **HUJJATLAR RO'YXATI**

(Ichki normativ hujjatlarning RO'YXATI (2024 yilning 6-yanvar holatiga tuzilgan ro'yxat):

Izoh!!!

Ro'yxatda ko'rsatilgan hujjatlar matni bilan "Olmaliq KMK" AJning rasmiy veb sahifasida quyidagi havola orqali bimalol tanishish mumkin:

Davlat tilida: <https://agmk.uz/oz/menu/korrupsiyaga-oid-hujjatlar>

Rus tilida: <https://agmk.uz/ru/menu/korrupsiyaga-oid-hujjatlar>

Ingliz tilida: <https://agmk.uz/en/menu/korrupsiyaga-oid-hujjatlar>

1. "Olmaliq kon-metallurgiya kombinati" AJning Komplayens-nazorat xizmati to'g'risidagi Nizom" (N 00193950-90-01-2022);

2. "Olmaliq kon-metallurgiya kombinati" AJ Komplayens-nazorat xizmati boshlig'ining Lavozim yo'riqnomasi" (Y 00193950-90-02-2022);

3. "Olmaliq kon-metallurgiya kombinati" AJning Korrupsiyaga qarshi Siyosati" (S 00193950-90-03-2022);

4. “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” AJ xodimlarining xizmatdagi odob-ahloq Kodeksi” (K 00193950-90-04-2022);

5. “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” AJda manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish to‘g‘risidagi Nizom” (N 00193950-90-05-2022);

6. “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” AJ ijro apparati bo‘linmalari hamda tarkibiy tuzilmalarida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni majburiy tartibda aniqlash, baholash va ularni kamaytirish” Uslubiyoti” (U 00193950-90-06-2022);

7. “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” AJning kontragentlarini (ishbilarmon hamkorlarini, sheriklarini) tekshirish tartibi bo‘yicha Yo‘riqnomasi” (Y 00193950-90-07-2022);

8. “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” AJ xodimlarini Xizmatdagi odob-ahloq qoidalari hamda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o‘qitishni tashkil qilish bo‘yicha Yo‘riqnomasi” (Y 00193950-90-08-2022);

9. “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” AJda tashkil qilingan aloqa kanallari orqali tizimdagi korrupsiyaviy xatti-harakatlar hamda huquqbuzarliklar to‘g‘risida kelib tushgan xabarlarini qabul qilish va ko‘rib chiqish Reglamenti” (R 00193950-90-09-2022);

10. “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” AJga ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish tartibi bo‘yicha Yo‘riqnomasi” (Y 00193950-90-10-2022);

11. “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” AJ xodimlari tomonidan sodir etilgan korrupsiyaviy xatti-harakatlar va xizmatdagi odob-ahloq qoidalarini buzish holatlari yuzasidan xizmat tekshiruvlarini o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi Reglament” (R 00193950-90-11-2022);

12. “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” AJda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha joriy qilingan tartib-taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish Uslubiyoti” (R 00193950-90-12-2022);

13. “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” AJda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha joriy etilgan tizimning holati to‘g‘risidagi hisobotini shakllantirish va taqdim etish tartibi to‘g‘risidagi Nizom” (N 00193950-90-13-2022);

14. “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” AJda sodir etilgan korrupsiyaviy huquqbuzarliklar haqida xabar bergan yoxud korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan shaxslarni rag‘batlantirish tartibi to‘g‘risidagi Nizom” (N 00193950-90-14-2022);

15. “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” AJda monopoliyaga qarshi kurashish bo‘yicha komplayens-nazorat tizimini joriy qilish va uning ishlash tartibi to‘g‘risidagi Nizom” (N 00193950-90-15-2022);

16. “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” AJning korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organlari bilan o‘zaro hamkorlik qilish tartibi to‘g‘risidagi Nizom” (N 00193950-90-16-2022).

Izoh: Quyidagi 2ta hujjat loyihasi joriy yilning aprel oyida Kuzatuv kengashiga ko‘rib chiqish va tasdiqlash uchun kiritilgan:

1. “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” AJ Kuzatuv kengashining Korrupsiyaga qarshi kurashish va etika qo‘mitasi to‘g‘risidagi Nizom (N 00193950-90-01-2022). (asos: 2022 yil 8-apreldagi PF-101-son Farmonning 14-bandiga muvofiq ishlab chiqilgan).

2. “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” AJning Yetkazib beruvchilarini (ta‘minotchilarini/pudratchilarini) mas‘uliyatli tanlash uchun ta‘minot (pudrat) zanjirlarini lozim darajada tekshirish bo‘yicha Siyosati” (S 00193950-90-02-2022). (asos: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Olmaliq shahriga tashrifi 2021 yil 29 dekabrda №02-RA 1-20838-son topshiriq bilan tasdiqlangan 22-dekabrda 56-son bayonning 10.2.-bandiga muvofiq ishlab chiqilgan).

III. Xavf-xatarlarni baholash²

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PQ-240-son qaroriga asosan “Olmaliq KMK” AJning Ustavida belgilangan barcha funktsiya va vazifalar korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash bo‘yicha baholashdan 2023 yil 25 sentyabrda o‘tkazilgan.

Bundan tashqari Kombinatning 18ta tarkibiy bolinmalarining barcha funktsiya va vazifalari korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash bo‘yicha baholashdan o‘tkazilishi ta‘minlangan.

E-antikor tizimidan Agentlikka 2023 yilning 25 sentyabr sanasida ekspertiza qilish uchun yuborilgan. Kombinatning birlashgan korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi, korrupsiya xavfiga eng ko‘p moyil bo‘lgan funktsiya va lavozimlar ro‘yxati ilova qilinmoqda.

Agentlikdan olinadigan Ekspertiza hulosasiga kora, Kombinatning korrupsiyaga qarshi kurash dasturi (“Yo‘l xaritasi”) va boshqa hujjatlar tasdiqlash uchun Kombinat boshqaruvi raisiga kiritiladi. Kombinatning Yo‘l xaritasida belgilangan chora tadbirlar ijrosi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar kelgusi hisobotlarda taqdim etiladi.

Davlat tashkilotlari o‘z faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni majburiy aniqlash va baholash ishlarini O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi (2022-yil 31-avgust, 2-son) va O‘zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligining (2022-yil 31-avgust, 5-son) qarori bilan tasdiqlangan va 3383-raqam bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, shu jumladan ularning hududiy bo‘linmalari, davlat unitar korxonalar va muassasalari, davlat ulushi 50 foizdan yuqori tashkilotlar faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash” uslubiyoti asosida “Olmaliq KMK”AJda jami 279ta funktsiyalar baholashdan o‘tkazilgan.

² Bo‘lim faqat har yillik hisobot davrida to‘ldiriladi. Mazkur bo‘limda Tashkilot tizimida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholashni o‘tkazish uslubiyotiga muvofiq amalga oshirilgan xavf-xatarlarni baholash natijalari bo‘yicha tahliliy axborot aks ettiriladi.

Baholash natijalariga ko'ra, ushbu funksiyalardan 269 tasi maqbul (past), 2 tasi o'rtacha va 8tasi yuqori xavf-xatarlar deb belgilangan hamda 2023 yilning sentyabr oyida yaxlit korrupsiyaviy xavf - xatarlar xaritasi tasdiqlangan.

“Olmaliq KMK”AJda korrupsiyaviy xavf-xatarlarga eng ko'p moyil bo'lgan funksiya va lavozimlar ro'yxati hamda 2024 yil korrupsiyaga qarshi kurashish doirasidagi maqsadlar belgilangan va o'quv-trening mashg'ulotlarini o'tkazish bo'yicha Reja-dastur tasdiqlangan.

“Olmaliq KMK”AJda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash Uslubiyoti” talablariga muvofiq Kombinat va uning tizimida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash har yili yoki shu jumladan O'zbekiston Respublikasi qonunchilik talablari o'zgarishida amalga oshirilishi belgilangan.

2022 yil 31 avgustdagi O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi va O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining qarori bilan “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, shu jumladan ularning hududiy bo'linmalari, davlat unitar korxonalari va muassasalari, davlat ulushi 50 foizdan yuqori tashkilotlar faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash Uslubiyoti” tasdiqlangan.

Shu munosabat bilan, “Olmaliq KMK”Ajning korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash loyihasi tayyorlanib “E-Anticor.uz” elektron platformasiga 2023 yilning sentyabr oyida joylashtirilgan.

IV. Manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish.

“Olmaliq KMK” AJning 2023 yil davomida Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi deklaratsiyani to'ldirgan xodimlar soni - 84,7 foizni tashkil qilmoqda. Ishga qabul qilishda, lavozimi o'zgarayotganda, rotatsiya qilinayotganda va yillik deklaratsiyani to'ldirgan Kombinat xodimlarining umumiy ro'xati Xodimlar bilan ishlash xizmati tomonidan tasdiqlangan (ro'yxat ilova qilinmoqda).

“Olmaliq KMK” AJ Boshqaruvining 2022 yil 31 oktyabrdagi 001258-son Buyrugi bilan “Olmaliq KMK”Ajda Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish to'g'risida”gi Nizom tasdiqlangan. Mazkur hujjat bilan Kombinat va uning tarkibiy bo'linmalarida manfaatlar to'qnashuvini oldini olish va bartaraf etish tartibi, shuningdek manfaatlar to'qnashuvini deklaratsiya qilishning qoidalari belgilangan.

Kombinat va uning tarkibiy tuzilmalarida manfaatlar to'qnashuvi holatlari kelib chiqishini oldini olish maqsadida quyidagi holatlarda xodimlar tomonidan deklaratsiyalar taqdim etilishi belgilangan va bugungi kunda amalga oshirilib kelinmoqda:

- vakant bo'lgan bo'sh ish o'rinlarga nomzodlarni lavozimga tayinlash va (yoki) rotatsiya qilishda;
- yillik deklaratsiyalar;
- real yoki potensial manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelgan fakti bo'yicha deklaratsiyalar.

Kombinatning Korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimini, 2024 yilda Xalqaro ISO 37001:2016 standart talablariga muvofiqlashtirish rejalashtirilganligi sababli 2023 yil yakuni bo'yicha yillik deklaratsiyalar taqdim etilmagan hamda ularning taxlili amalga oshirilmagan.

Korrupsiyaga qarshi qoidalarni Tashkilot sharnomalariga kiritish

Korrupsiyaga qarshi qoidalar "Olmaliq KMK" AJning 2023 yil davomida imzolangan barcha 10 202 dona (100%) kontraktlariga kiritish ta'minlangan.

Kombinatning barcha haridlari hamda shartnomalari markazlashgan tartibda Kombinat tanlov komissiyasi rahbari – Boshqaruv raisining tijorat masalalri bo'yicha o'rinbosari M.Achilov tomonidan imzolanadi. Shu boisdan, "Olmaliq KMK" AJning tarkibiy bo'linmalari kesimida malumot taqdim etish imkoniyati mavjud emas.

Hisobot davrida kontragentlarning korrupsiyaga qarshi qoidalarni shartnomalarga kiritishni rad etish holatlari kuzatilmagan.

"Olmaliq KMK" AJning biznes-xamkorlari bilan tuzilgan shartnomalarga "Kombinatning Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha shartlar"i to'liq kiritilgan.

Shuningdek, Kombinatning ish beruvchi sifatida xodimlar bilan tuziladigan barcha mehnat shartnomalariga ham Xodimlar bilan ishlash xizmatining mas'ullari tomonidan kiritilishi ta'minlanmoqda.

Kontragentlarni tekshirish

"Olmaliq KMK" AJ Komplaens-nazorat xizmati tomonidan tarkibiy bo'linmalar va rahbariyatning tegishli murojaatlari topshiriqlari asosida 2023 yilda hisobot davrida o'tkazilgan kontragentlar tekshiruvlari soni 2tani tashkil qildi. Tegishli hulosalar Modulning 1.2.3.4. - Indikator bandiga joylashtirildi.

Ishga nomzodlarni tekshirish

"Olmaliq KMK" AJda hisobot davrida 2023 yil davomida ishga qabul qilingan barcha nomzodlar 100% tekshirilishi ta'minlandi. Nomzodlarni tekshirish ishlari Boshqaruv raisining Xavfsizlik bo'yicha o'rinbosari, Kombiant ijro apparati RSO-Rejim mahfiylikni ta'minlash bo'limi hamda tarkibiy bo'linmalardagi havfsizlik bo'yicha o'rinbosarlar tomonidan ta'minlandi. Tasdiqlovchi hujjatlar Modulga Indikatorning 1.2.3.3.-bandiga joylashtirildi. Ishga qabul qilinuvchi nomzodlarga nisbatan o'tkazilgan tekshiruvlar to'g'risidagi xulosalar ham Modulga yuklandi.

V. Ta'lim va kommunikatsiya

"Olmaliq KMK" AJning 2023 yil 25 martdagi 000639-son farmoyishi bilan Kombinatning 54 nafar xodimlari O'zbekiston Respublikasi Xuquqni muhofaza qilish akademiyasi mutahassislari tomonidan online shaklda oqitildi.

“Olmaliq KMK” AJ Xodimlar bilan ishlash xizmati tomonidan tasdiqlangan o‘qitish turlari, shakllari, o‘qitilgan xodimlar soni hamda ularning lavozimi va bo‘linmalari ro‘yxati ilovada kiritilmoqda. Huquqni muhofaza qilish Akademiyasi tomonidan Kombinat xodimlariga berilgan sertifikatlardan namunalar Modulning 4.2.4. Indikatorida 3ta donasi biriktirildi.

Bundan tashqari, “Olmaliq KMK” AJning 2023 yil 14 sentyabrdagi 01324-son buyrugi bilan Kombinatning 133 nafar xodimlari Adliya vazirligi huzuridagi Yuristlar malakasini oshirish markazi mutahasisslari tomonidan Olmaliq shahriga tashrif buyrgan holda oqitildi.

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Yuristlar malaksini oshirish Markazi tomonidan berilgan sertifikatlardan namunalar Modulning 4.2.4. Indikatorida 3ta donasi biriktirildi.

“Olmaliq KMK” AJ xodimlarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi huquqiy ongini yanada oshirish hamda korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatni shakllantirish maqsadida 2024 yilda o‘quv-trening mashg‘ulotlarini o‘tkazish bo‘yicha reja - dastur tasdiqlangan va belgilangan muddatlarda o‘quv-treninglar o‘tkazilishi rejalashtirilgan.

“Olmaliq KMK” AJ tizimida 2023 yil mobaynida Korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi qoidalari va talablari bo‘yicha jami – 187 nafar xodimlari o‘qitilgan.

Korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi talablarining o‘zlashtirilganlik darajasini tekshirish maqsadida 187 nafar xodimlar o‘rtasida test sinovlari o‘tkazilgan.

Kombinat va tarkibiy bo‘linmalarning 500 nafar rahbar (muhandis-tehnika) lavozimidagi xodimlariga ISO 37001:2016 xalqaro standart asosida maxsus treninglar o‘tkazilishi Tehnika topshiriqda belgilangan.

2023 yil 7 dekabr kuni – Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni munosabati bilan Olmaliq shahridagi “Metallurg” madaniyat saroyida “Ochiq eshiklar kuni” tadbiri o‘tkazilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan tashkil etilgan barcha tadbirlarda “Olmaliq KMK”ning korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi talablari doirasida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida tadbir ishtirokchilariga ma’lumot taqdim etilgan, joriy etilgan tizim bilan batafsil tanishtirilgan.

2023 yil mobaynida O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan tashkil qilingan seminar treninglarda Kombinatning Komplaens-nazorat xizmati hamda Axborot xizmati (Matbuot xizmati) hodimlari ishtirok etgan.

“Olmaliq KMK” AJ Boshqaruv Raisining korrupsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olish yuzasidan xodimlar va biznes hamkorlarga yo‘llagan murojaati Kombinatning rasmiy veb-sahifasida davlat tiliда, rus va ingliz tillarida joylashtirilgan. (<https://agmk.uz/ru/vystuplenija/address-of-the-chairman-of-the-board-of-the-almalyk-mmc> - rus tiliда), (<https://agmk.uz/uz/vystuplenija/address-of-the-chairman-of-the-board-of-the-almalyk-mmc> – davlat tiliда),

(<https://agmk.uz/en/vystuplenija/address-of-the-chairman-of-the-board-of-the-almalyk-mmc> – ingliz tilida) va OKMKning rasmiy Telegram kanalida (https://t.me/ao_agmk/13420) ham joylashtirilgan.

“Olmaliq KMK” AJga ishga qabul qilingan yangi xodimlarga Korrupsiyaga qarshi kurashish menedjment tizimi yuzasidan doimiy tarzda “Welcome Training” dasturi bo‘yicha Kombinat O‘quv markazi tomonidan muntazam ravishda o‘quv treninglar o‘tkazilib kelinmoqda.

Korrupsiyaga qarshi kurashish menedjment tizimini yanada takomillashtirish, shuningdek mijoz va xodimlarning fikrini o‘rganish maqsadida Kombinatning rasmiy veb-saytida “So‘rovnoma” joylashtirilgan.

Kombinat Axborot xizmatining kanali hamda ijtimoiy tarmoqlarda korrupsiyaviy xatti-xarakatlar to‘g‘risida xabar berish uchun mo‘ljallangan aloqa kanallari to‘g‘risida e‘lonlar joylashtirilgan.

Xodimlarga aloqa kanallari va ular orqali korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to‘g‘risida xabarlar yuborish imkoniyati haqida eslatmalar yuboriladi.

VI. Korrupsiyaviy xatti-xarakatlar va huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi xabarlar

“Olmaliq KMK” AJning internet tarmog‘idagi rasmiy veb-sahifasi (<https://agmk.uz/ru/menu/helpline->) yoxud elektron pochta manzili orqali (stop.corruption@agmk.uz).

“Olmaliq KMK” AJning ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy kanal va sahifalari (misol uchun Facebookdagi rasmiy sahifasi <http://www.facebook.com/agmkofficial>) orqali.

“Olmaliq KMK” AJning Ishonch telefon raqamlari orqali: (+998 70) 619-23-33; (+998 78) 141-93-33 (Ishonch va boshqa ish telefon raqamlari orqali).

“Olmaliq KMK” AJning telegram boti (@OKMK_OFFICIAL_bot) “Olmaliq KMK” AJ rahbariyati yoxud Komplaens-nazorat xizmatiga og‘zaki (shaxsan) murojaat qilishlari mumkin.

Komplaens-nazorat xizmati:

(+998 70) 619-51-05 (Komplaens-nazorat xizmati).

(+998 93) 182-10-04 (Komplaens-nazorat xizmati).

(+998 78) 141-90-09 (Kommutator);

(+998 70) 619-51-68 (Ofis-menedjer xizmati – xatlar yuborish uchun).

“Olmaliq KMK” AJning internet tarmogidagi rasmiy web sahifasi havolasi: www.agmk.uz

Telegramm messenjerida – “AGMK-OKMK rasmiy kanali” - https://t.me/ao_agmk

Facebook messenjerida: www.facebook.com/agmkofficial

Youtube videoxostingida: www.youtube.com/c/AGMKuzAlmalik

Instagram messenjerida: www.instagram.com/agmkofficial/

Twitter mikroblogida: https://twitter.com/agmk_official

VII. Monitoring va nazorat³

“Olmaliq KMK” AJ ning Korrupsiyaga qarshi kurashish yonalishidagi chora - tadbirlari Reja (tashkilotning barcha jarayonlarini, monitoring va nazorat qilinadigan davri va tekshiruv muddatlarini o‘z ichiga olgan) qaror, buyruq va farmoyishlari ilovada kiritilmoqda.

Shuningdek Marksheyderlik bo‘limida o‘tkazilgan Xizmat tekshiruvi natijasida tuzilgan dalolatnoma, chora-tadbirlar, aniqlangan kamchiliklar, muammolarni yechish bo‘yicha takliflar nusxalari kiritilmoqda.

Toshkent viloyatining tegishli qaroriga ko‘ra, Kombinat balansida 22 067 gektar yer maydonlari mavjud. Ular 5dan ortiq toyifaga bo‘linadi.

Komplayens-nazorat xizmati tomonidan Hisobot davrida o‘tkazilgan xizmat tekshiruvlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar (aniqlangan kamchiliklar, muammolarni bartaraf etish bo‘yicha asoslantirilgan takliflar, xizmat tekshiruvlarini o‘tkazish uchun asos bo‘lgan buyruqlar nusxalari) Samaradorlikni baholash Modulining 1.2.4.2. bandiga barcha tasdiqlovchi hujjatlari bilan kiritilgan.

VIII. Aniqlangan qoidabuzarliklar va ularga ta’sir choralari

Hisobot davrida, yani 2023 yil mobaynida Olmaliq shahrida jami 74ta korrupsiyaviy jinoyatlar sodir etilgan. Komplayens-nazorat xizmati tomonidan 2ta holat bo‘yicha Prokuratura idoralarga hujjatlar to‘plami kiritilgan. Ayni vaqtda, Prokuratura tomonidan tergov-surishtiruv ishlari amalga oshirilmoqda.

2023 yil oktyabr oyining 12 sanasiga qadar, jinoyatlarni qayd etish Sh-1 kitobida jinoyat va xodisalar xaqidagi 47 ta xabarlar qayd qilingan bo‘lib, shundan 41 ta xolatlar bo‘yicha jinoyat ishlari qo‘zgatilgan, 6 ta qo‘shimcha jinoyat tergov davomida aniqlangan.

Hisobot davrida, “Olmaliq KMK” AJ obyektlarida jami 47 ta jinoyat sodir etilgan bo‘lib, shundan 5 tasi ochilmagan, ochilish ko‘rsatkichi 89,36 % ni tashkil etadi.

Shundan, “Olmaliq KMK” AJ 3-sonli Mis boyitish fabrikasi xududida jami 22 ta jinoyat sodir etilgan bo‘lib, ochilishi 100%ni tashkil etgan.

“Olmaliq KMK” AJ obyektlarida sodir etilgan ma’muriy huquqbuzarliklar soni - 81 tani tashkil etadi.

Hisobot davrida, 47 ta jinoyatlar, 81 ta ma’muriy xuquqbuzarliklar natijasida yetkazilgan zararlarni undirish bo‘yicha samarali ishlar olib borilib, sodir etilgan

³ Tashkilotda hisobot davrida Korrupsiyaga qarshi protseduralariga rioya qilinishini monitoring va nazorat qilish metodikasiga muvofiq o‘tkazilgan tadbirlar yakunlari bo‘yicha umumiy tahliliy axborot aks ettiriladi.

jinoyatlardan - 1 192 400 453 so‘m hamda ma‘muriy huquqbuzarliklardan - 151 442 042,13 so‘m undirilishi ta‘minlandi.

Jami undirilgan summa miqdori - 1 343 842 495,13 (bir milliard uch yuz qirq uch million sakkiz yuz qirq ikki ming to‘rt yuz to‘qson besh som, 13 tiyin) so‘mni tashkil qildi.

Hisobot davrida, sodir etilgan 47 ta jinoyatlarning xududlar kesimidagi taxlili quyidagicha:

- Olmaliq shahar xududida - 40 ta jinoyat sodir etilgan;
- Ohangaron tumani xududida - 6 ta jinoyat sodir etilgan;
- Namangan viloyati Pop tumanida - 1 ta jinoyat sodir etilgan.

IX. Xulosalar

“Olmaliq KMK”AJ tizimida jami 94ta tarkibiy bo‘linmalar mavjud.

2024 yilning 1 yanvar holatiga Kombinat tizimida **35 950 nafar ishchi hodimlar** mehnat faoliyatini amalga oshirib kelmoqda. 2023 yil davomida (1-yanvardan – 31 dekabrga qafar) **jami 10 202 dona kontraktlar imzolangan va royhatdan o‘tkazilgan.**

2021 yilning May oyida, Boshqaruv qaroriga asosan Kombinatda korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasi tashkil qilingan. 2024 yil 1-yanvar holatiga Komplayens-nazorat xizmatida 6 shtat birliklari mavjud bo‘lib, haqiqatda (amalda) 4 nafar hodimlar faoliyat ko‘rsatmoqda.

Xizmatdagi 2ta vakant bosh ish o‘rinlari uchun tanlovlar e‘lon qilish rejalashtirilgan.

2022 yilning 31-oktyabr sanasida korrupsiyaga qarshi kurashish masalalariga oid 16dona ichki lokal hujjatlar Boshqaruv qarori bilan tasdiqlangan va amaliyotga bosqichma-bosqich joriy qilinmoqda.

Bundan tashqari, yana 2ta hujjat “Olmaliq KMK”AJning Kuzatuv kengashi tomonidan 2022 yilning iyul oyida tasdiqlangan.

2023 yilning noyabr oyida, **“ISO 37001:2016 – «Korrupsiyaga qarshi boshqaruv tizimlari – Foydalanish uchun talablar va tavsiyalar»** xalqaro standarti talablariga muvofiqlik sertifikatini olish maqsadida mahsus elektron platformada ochiq va shafof tanlovlar e‘lon qilindi.

Ayni paytda, ishtirokchilarning taklif va etirozlari asosida Tanlov hujjatlari qayta ishlab chiqilmoqda.

PQ-240 qaroriga muvofiq Kombinat va uning tarkibiy bo‘linmalarida (jami 94ta bolinmalar va 35 950 nafar hodimlar) korrupsiyaviy havf hatarlarni dastlabki baholash ishlari 2023 yilning 25-sentyabr sanasida yakuniga yetkazildi.

Baholash natijalari Agentlikka, Hisob palatasiga, Vazirlar Mahkamasiga va boshqa manfaatdor tashkilot va idoralarga taqdim qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi bilan o‘zaro hamkorlik qilish to‘grisidagi Memorandumni imzolash masalasi ishlab chiqilmoqda.

X. Korrupsiyaga qarshi kurash tizimini yanada rivojlantirish bo‘yicha takliflar va tadbirlar rejasi

“Olmaliq KMK”AJ tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining alohida ko‘rsatkichlarni Ijro apparati va tarkibiy bo‘linmalar kesimida yaxshilash imkonini beruvchi asosiy tadbirlar ro‘yhati Modulning 1.2.4.1.–bandiga biriktirildi.

2023 yilning 5-dekabr sanasida Agentlik tomonidan tashkil qilingan Prezident Qarorining loyihasi muhokamasida Kombinatning Komplaens-nazorat xizmati hodimlari ham faol ishtirok etdilar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori loyihasini muhokama qilish yakuni bilan ishlab chiqilgan taklif va etirozlar **2023 yilning 5-dekabr sanasida “Таблица разногласий” shaklida** Agentlikning ma’sul hodimlariga tezkor yetkazilishi ta’minlandi.

“Olmaliq KMK” AJ
Komplaens-nazorat xizmati boshlig‘i v.b.

Sh.H. Jo‘rayev